

MAKTAB TA'LIMIGA GADJETLARNING SALBIY TA'SIRI VA UNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI

Djumaboyeva Sabohat Nigmatillayevna

Parkent tumani 57-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada maktab o'quvchilarining ta'lim jarayonida gadgetlardan ortiqcha foydalanishi natijasida yuzaga kelayotgan muammolar va ularning ta'lim sifati hamda intellektual rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, gadgetlarga qaramlik bolalarning sog'lig'iga, jumladan, ko'rish qobiliyatining pasayishi va jismoniy faollikning kamayishiga olib kelayotganligi o'rganilgan. Maqolada AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya va Finlandiya kabi rivojlangan mamlakatlarning maktab ta'limida gadgetlardan foydalanishni cheklash bo'yicha tajribalari o'rganilib, O'zbekiston sharoitida amalga oshirish mumkin bo'lgan samarali strategiyalar taklif qilingan. Maqola davomida ta'lim sifati va bolalarning akademik natijalarini yaxshilash maqsadida gadgetlardan foydalanishni tartibga solish, ota-onalar nazoratini kuchaytirish kabi yechimlar taklif etilgan. Xalqaro tajribalarga asoslanib, gadgetlarning ta'limga salbiy ta'sirini minimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Gadgetlar, maktab ta'limi, akademik natijalar, texnologik qaramlik, ta'lim sifati, bolalar sog'lig'i,

KIRISH

Hayotimizning barcha jabhalarida axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelgani hamda jadal rivojlanish yo'liga o'tgani jamyatimizga ham katta o'zgarishlar olib kirdi. Axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida o'quvchilarga yetkazish murakkablikni namoyon etmoqda. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar mustaqil ravishda o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin bo'ladi. Shu sababli, o'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zarur [1]. Shunday sharoitda o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda o'z oldiga aniq maqsad qo'yib harakat qilishlarini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun nafaqat dars mashg'ulotlari jarayonida, balki bo'sh vaqtlarini ham mazmunli tashkil etish, ularga mustaqil ta'lim olishga oid zamonaviy usullarni o'rgatish lozim. Bu jarayonda ta'lim muassasalarining roli beqiyos bo'lib, ularning faoliyati ta'lim jarayonining uzviyligini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Albatta, maktab ta'limi davlat ahamiyatiga molik masala hisoblanadi. Xususan, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunining 9-moddasi 7-xatboshisida “Boshlang'ich ta'lim ta'lim

oluvchilarda umumiy o‘rta ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asosini shakllantirishga qaratilgan”, 8-xatboshisida “Tayanch o‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilarga bilim, malaka va ko‘nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi”, 9-xatboshisida “Tayanch o‘rta ta’lim doirasida ta’lim oluvchilarda kasblar bo‘yicha birlamchi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha choralar amalga oshiriladi” hamda 10-xatboshisida “O‘rta ta’lim o‘quv dasturiga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar o‘zlashtirilishini, shuningdek ta’limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta’minlaydi” – deya, belgilab o‘tilgan [2]. Mazkur satrlar maktab ta’limi komponentlarining mohiyatini ochib beradi.

Darhaqiqat, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan maktab ta’limini rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektorda ham “Ta’lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo‘q. Qanchalik murakkab bo‘lmasin, maktab ta’limida poydevorni bugundan mustahkam qo‘yishimiz kerak. Chunki, biz ko‘p vaqt yo‘qotganmiz”, – deya fikr bildirilgan. Shuningdek, “Kimda-kim maktab bu faqat Xalq ta’limi vazirligining ishi, deb o‘ylasa, mutlaqo yanglishadi. Maktab ta’limi sohasidagi islohotlar vazirlik va idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyolilar, keng jamoatchilikning vazifasi bo‘lishi shart va zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin” deya maktab ta’limini istiqbollari uchun g‘oyatda muhim bo‘lgan so‘zlar aytilgan [3].

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham maktab ta’limi haqida alohida maqsad belgilanishi maktab ta’limining davlat ahamiyatidagi masala ekanligini tasdiqlab beradi. Zero,

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining 44-maqjadi “Maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish” deya nomlangan bo‘lib, quyidagi vazifalar yuklangan:

- Maktabda faoliyat olib borishi uchun har bir fan bo‘yicha mahalliy yoki xalqaro sertifikatlash talablarini belgilash.”

- Toifaga ega bo‘lmagan maktab o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini diagnostikadan o‘tkazish.

- Umumta’lim maktablarini, ayniqsa, chekka hududlardagi ta’lim maskanlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ishlarini davom ettirish.

- Maktablarda direktor va uning o‘rinbosarlarini tayinlash tizimini maktab o‘qituvchilari va ota-onalarning ishtiroki ta’minlanishini nazarda tutgan holda yanada takomillashtirish.

- Xalq ta’limi tizimi tuman bo‘linmalari faoliyatini to‘liq raqamlashtirish hisobiga optimallashtirish [4]. Mazkur fikrlar va tartibotlarni umumlashtirib shuni anglash mumkinki, maktab ta’limini rivojlantirish bilan bog‘liq islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha dadil qadamlar tashlangan.

ASOSIY QISM

Zamonaviy texnologiyalar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ular ta‘lim jarayoniga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Mobil telefonlar, planshetlar va kompyuterlarning keng tarqalishi bolalar uchun yangi imkoniyatlar yaratgan bo‘lsa-da, ular o‘qish jarayoniga ham salbiy ta‘sir o‘tkazmoqda. Ayniqsa, gadjetlardan ortiqcha foydalanish bolalarning diqqatini chalg‘itadi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishini pasaytiradi va bilim olish jarayonining samaradorligini kamaytiradi. Ota-onalar va pedagoglar ushbu muammoga duch kelib, bolalarni texnologik qaramlikdan himoya qilish va ularning ta‘limga bo‘lgan e‘tiborini oshirish yo‘llarini izlamoqdalar.

Gadget – bu kichik, qo‘lda olib yursa bo‘ladigan texnologik qurilma. U odatda bir yoki bir necha funksiyalarni bajarishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Bunday ajoyib qurilmalarning yana bir o‘ziga xos xususiyati shuki, ularning har biri o‘zining original dizayni va foydaliligi bilan boshqalaridan ajralib turadi. Zamonaviy gadgetlar turli sohalarda insonlarga yordam berib kelmoqda. Sport, san‘at, tibbiyot, ta‘lim kabilar shular jumlasidandir.

Uzoq vaqt davomida mobil qurilmalardan foydalanish muskullar gipotrofiyasi, ko‘zning qurib qolishi va uzoqni ko‘rolmaslik kabi bir qancha jiddiy muammolarga sabab bo‘ladi. Gap shundaki, telefon yoki kompyuter ekraniga uzoq va davomiy tikilib turish oqibatida odamlar ko‘zini odatdagidan besh barobar kamroq pirpiratadi. Bu esa ko‘zning old yuqori qismi quruqlashishiga olib keladi. Mutaxassislarning fikricha, gadgetlardan uzoq vaqt davomida foydalanish shabko‘rlik muammosini keltirib chiqaradi [5].

Gadgetlar qanday qilib biz uchun hayotning ajralmas qismiga aylanganini barchamiz yaxshi tushunamiz. Va bolalar uchun ham shunday bo‘lishi tabiiy holdir. Faqatgina ikki yoshgacha bo‘lgan bolalar bundan mustasno. Eng jiddiy qiyinchiliklar maktab yoshidagi bolalarda paydo bo‘lishi mumkin, chunki ular sinfdoshlari va boshqa o‘smirlarning tanqidiga ko‘proq moyil. Bu yoshda asosiy narsa uni qattiqqo‘llik va taqiqlar bilan haddan tashqari oshirmaslikdir. Aks holda, ishonch bilan bog‘liq muammolar bo‘lishi mumkin va bu holda, bola ota-onadan ko‘ra maslahat yoki yordam uchun begonalarga murojaat qiladi. Shunday qilib, siz bola bilan qoidalarni o‘rnatishingiz mumkin, masalan, u faqat uy vazifasi bajarilganda sevimli o‘yinlarni o‘ynashi mumkin.

Hozirgi davrda Internet tarmog‘iga ulangan kompyuter, mobil telefonlari deyarli ko‘plab xonadonlarda mavjud. Bundan tashqari, yoshlar internet kafelarda ham tarmoqdan foydalana oladilar. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal taraqqiy etishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga joriy etilishi sababli barcha uchun kompyuter savodxonligi dolzarb masalalardan biridir. Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o‘ziga ulg‘aymoqda. Bu quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me‘yori bo‘lmog‘i zarur. Yoshlar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart [6].

Jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, uzoq vaqt davomida mobil qurilmalardan foydalanish bolalarning intellektual rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ayrim rivojlangan davlatlarda o‘tkazilgan tadqiqotlarda gadgetlarga qaram bo‘lgan bolalarning akademik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada pasayishi kuzatilgan.

Shu sababli ayrim mamlakatlarda maktablarda telefonlardan foydalanishga cheklovlar joriy etilgan.

Shuningdek, kuniga uch soat vaqtni gadjetlar bilan o‘tkazgan to‘qqiz va o‘n yoshdagi 4495 nafar bola ishtirok etgan tadqiqot ularda diabet bilan kasallanish, insulinga rezistentlik va yog‘ to‘plamlarining paydo bo‘lishi kabi omillarning yuqoriligini ko‘rsatgan [7].

Amerika Pediatriya Akademiyasi mutaxassislari maxsus tadqiqotlar yordamida shuni aniqladilarki, aksariyat hollarda bola kuniga qariyb 7 soat vaqtini smartfonida o‘yin o‘ynash yoki video tomosha qilish uchun sarflaydi. Bu haqda ingliz olimlari britaniyalik ota-onalar bilan ham suhbatlashdi. Ma’lum bo‘lishicha, ota-onalarning 60% dan ortig‘i farzandining ko‘p vaqtini qo‘lida telefon bilan o‘tkazishidan juda xavotirda. Ulardan bolalarning deyarli yarmi, hatto ota-onasi yoki boshqa suhbatdoshi qo‘shni xonada bo‘lsa ham, messenjerlar yordamida muloqot qiladi. Garchi mamlakatimizda bu muammo shu tarzda o‘rganilmagan bo‘lsa-da, vaziyat yaxshi natijalarni taqozo etmayapti [8].

Maktab o‘quvchilari tomonidan gadjetlardan foydalanish tartibi bo‘yicha ilg‘or davlatlar o‘zlarining tajribalarini ishlab chiqqan. Masalan, Yaponiya maktab ta’limida o‘quvchilarga mobil telefonlardan foydalanish taqiqlanadi. O‘quvchilar darslar oralig‘ida yoki darsdan keyin maktabga kirish joyi oldidagi avtoturargohda telefondan foydalanishlari mumkin. Agar o‘qituvchi darsda telefonni payqab qolsa, albatta, uni olib qo‘yadi [9].

Germaniya maktablarida boshlang‘ich sinflarda telefonlardan foydalanish taqiqlangan bo‘lib, o‘quvchilarning ko‘chada ko‘proq vaqt o‘tkazishlari va sport mashg‘ulotlariga qatnashishlari rag‘batlantiriladi. Finlandiya maktablarida o‘quvchilarning ochiq havoda vaqt o‘tkazishlari va darsdan keyingi mashg‘ulotlarga qatnashishlari ta’lim tizimining muhim qismi hisoblanadi. AQShning ayrim shtatlarida maktablarda smartfonlardan foydalanishni taqiqlash orqali o‘quvchilarning o‘qishga e’tibori oshirilgan.

Fikrimizcha, yuqorida keltirilgan xalqaro tajribalar bilan tanishgan holda, gadjetlar masalasida Janubiy Koreya tajribasi fenomenal xususiyatga ega. Janubiy Koreya hukumati 2011-yilda "Shutdown Law" (Yopilish qonuni) deb nomlangan qonunni joriy etgan bo‘lib, ushbu qonunga ko‘ra, 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar kechasi soat 12:00 dan ertalab soat 6:00 gacha onlayn o‘yinlarga kira olmaydilar. Bu chora bolalarning tungi vaqtlarda o‘yin o‘ynashini cheklash va ularning sog‘lom uyqu rejimini ta’minlash maqsadida qabul qilingan [10].

O‘zbekiston sharoitida ham ushbu masala dolzarb bo‘lib, maktab ta’limidagi o‘quvchilar o‘rtasida gadjetlarga haddan tashqari bog‘lanish kuzatilmoqda. Ko‘plab o‘quvchilar ijtimoiy tarmoqlar, mobil o‘yinlar va video kontent bilan shug‘ullanib, o‘qish jarayoniga yetarlicha e’tibor bermayapti. Bu esa darslarga diqqatini jamlay olmaslik, yodlash qobiliyatining susayishi va muloqot ko‘nikmalarining pasayishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, ko‘p vaqtini ekran qarshisida o‘tkazish bolalarning jismoniy sog‘lig‘iga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, ya’ni ko‘rish qobiliyatining yomonlashishi, holsizlik va harakat faolligining kamayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Hozirgi holat shuni taqozo etmoqdaki, maktab ta’limidan tashqari vaqtlarda gadjetdan me’yorida ortiq foydalanish maktab ta’limi o‘quvchilarining akademik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada

pasaytirmoqda. Fikrimizcha, Janubiy Koreya kabi “Yopilish qonuni”ni mamlakatimiz hayotiga tatbiq etsak, maktab ta’lim o‘quvchilarining bilimlarni o‘zlashtirish darajasiga yuqori darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Mobil telefonlar, planshetlar va kompyuterlarning keng qo‘llanilishi bolalarga yangi imkoniyatlar yaratgani bilan birga, ularning bilim olish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin. Ayniqsa, gadjetlardan ortiqcha foydalanish bolalarning diqqatini chalg‘itadi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishini pasaytiradi va akademik natijalarining yomonlashishiga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, uzoq vaqt davomida mobil qurilmalardan foydalanish nafaqat bolalarning ta’lim jarayoniga, balki ularning sog‘lig‘iga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, gadjetlardan noto‘g‘ri foydalanish bolalarda insonlar bilan yuzma-yuz muloqot qilish qobiliyatining sustlashishiga, intellektual rivojlanishning sekinlashishiga va ijtimoiy ajralish xavfining ortishiga sabab bo‘ladi.

Ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning diqqat-e’tiborini ta’lim jarayoniga qaratish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali O‘zbekiston yoshlarining kelajakdagi intellektual salohiyatini mustahkamlash mumkin. Shu bois, xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirib joriy etish zarur. Shu tariqa, gadjetlarning salbiy ta’sirini minimallashtirish va o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish orqali mamlakatimizda ta’lim sifatini yanada yuksaltirishga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘quvchiga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish / Ilmiy maqola / Boymatova M.F. / “Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o‘rni va rivojlanish omillari” nomli ilmiy jurnali 6-to‘plam 2 son, 2024;
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son Qonuni;
3. 2022-yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tomonidan “Maktab ta’limini rivojlantirish masalalari bo‘yicha” o‘tkazilgan videoselektor.
4. 2022-yil 28-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni;
5. <https://qalampir.uz/uz/news/zamonaviy-uyinchok-lar-bola-uchun-khavfl-imi-28099>;
6. Internetning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati va o‘rni / Ne‘matova M., Xoliqova P. / Tezis / Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim: innovatsiyalar, muammolar va rivojlanish istiqbollari mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami, 569-bet, 2023 y.;

7. <https://kun.uz/51204354;>
8. [https://pvplive.net/uz/the-reasons-for-childrens-dependence-on-mobile-gadgets-and-when-do-parents-need-to-intervene.](https://pvplive.net/uz/the-reasons-for-childrens-dependence-on-mobile-gadgets-and-when-do-parents-need-to-intervene)
9. [https://studyboom.ru/uz/kakie-uroki-est-v-yaponskih-shkolah-obrazovanie-v-yaponii-interesnye/;](https://studyboom.ru/uz/kakie-uroki-est-v-yaponskih-shkolah-obrazovanie-v-yaponii-interesnye/)
10. [http://www.koreanlii.or.kr/w/index.php/Shutdown_system?ckattempt.](http://www.koreanlii.or.kr/w/index.php/Shutdown_system?ckattempt)